XALQ PEDAGOGIKASINING ZAMONAVIY TA’LIMDAGI TALQINI

Jurayeva Zilola Ulug‘bek qizi
Magistrant
Buxoro innovatsiyalar universiteti

Annotatsiya: Ushbu maqolada xalq pedagogikasining zamonaviy ta’lim jarayonidagi ahamiyati, uning tarbiyaviy va ma’naviy funksiyalari tahlil qilinadi. Xalq og‘zaki ijodi, urf-odatlar, qadriyatlar va milliy pedagogik tajribalar asosida shakllangan ta’limiy g‘oyalar bugungi kunda yosh avlodni ma’naviy barkamol, milliy o‘zlikni anglagan, ijtimoiy faol shaxs sifatida tarbiyalashda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi. Tadqiqotda xalq pedagogikasini ta’lim dasturlariga integratsiya qilishning zamonaviy yondashuvlari, raqamli ta’lim muhitida folklor resurslaridan foydalanish imkoniyatlari hamda pedagogik tajribalar o‘rganiladi.

Kalit so‘zlar: xalq pedagogikasi, xalq og‘zaki ijodi, zamonaviy ta’lim, milliy qadriyatlar, ma’naviy tarbiya, raqamli ta’lim, integratsiya

Abstract: This article examines the significance of folk pedagogy in contemporary education and analyzes its moral, cultural, and educational functions. The educational concepts formed on the basis of folk oral traditions, customs, and national values play an essential role in developing spiritually mature, socially active individuals with strong national identity. The study explores modern approaches to integrating folk pedagogy into educational curricula, the application of folklore resources in digital learning environments, and relevant pedagogical practices.

Keywords: folk pedagogy, oral folklore, modern education, national values, moral upbringing, digital learning, integration

“Xalq donishmandligi – eng buyuk maktabdir” O‘zbek xalq maqoli

Bugungi globallashuv jarayonida milliy ta’lim tizimi oldida turgan eng muhim vazifalardan biri – yosh avlodni nafaqat zamonaviy bilimlar bilan qurollantirish, balki ularning ma’naviy-axloqiy dunyosini boyitish, milliy o‘zlik va qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalashdir. Bu jarayonning muvaffaqiyati esa asrlar davomida shakllangan xalq donishmandligi, tarbiyaviy tajribalari va ma’naviy merosidan oqilona foydalanishni talab etadi. Xalq pedagogikasi - millat madaniy xotirasining eng qadimiy qatlamlarini o‘z ichiga olgan, hayotiy tajriba va axloqiy mezonlarga asoslangan tarbiyaviy tizim bo‘lib, u orqali jamiyatning ma’naviy poydevori, urf-odatlari, e’tiqodlari va ijtimoiy qadriyatlari avloddan-avlodga yetkazib kelingan. Xalq pedagogikasining tarbiyaviy imkoniyatlari deganda xalq tarbiya tajribasidan joy olgan eng ilg‘or pedagogik bilimlar, malaka va ko‘nikmalar, zamonaviy o‘quv dargohi va oila tarbiyaviy tizimida yoshlarni tarbiyalash maqsad va vazifalarini hal etish uchun qulay shart- sharoitlami yaratish tushuniladi [1].

Zamonaviy ta’lim jarayonida xalq pedagogikasining ahamiyati yangicha mazmun kasb etmoqda. Zero, xalq og‘zaki ijodi, an’anaviy udumlar, tarixiy-falsafiy qarashlar hamda milliy tarbiya tamoyillari o‘quvchilarda ma’naviy barkamollikni shakllantirishda, ijtimoiy faollik va fuqarolik pozitsiyasini rivojlantirishda, milliy madaniyatga hurmat tuyg‘usini kuchaytirishda beqiyos pedagogik imkoniyatga ega. Xalq pedagogikasining ta’lim jarayoniga integratsiya qilinishi o‘quvchilarning o‘zlikni anglashini chuqurlashtiradi, milliy identitetning mustahkamlanishiga xizmat qiladi va zamonaviy raqamli ta’lim muhitida ham samarali qo‘llanishi mumkin bo‘lgan tarbiyaviy modelni shakllantiradi.

Xalq pedagogikasi bugungi ta’lim tizimida yoshlarni milliy qadriyatlarga sodiq, ma’naviy barkamol, ijtimoiy faollikka ega shaxslar etib tarbiyalashda muhim manba sifatida namoyon bo‘lishi asoslab berilgan [2]. Shu nuqtai nazardan, xalq pedagogikasini nafaqat tarixiy manba sifatida o‘rganish, balki uni zamonaviy didaktik texnologiyalar, raqamli ta’lim vositalari, innovatsion metodlar bilan uyg‘unlashtirish dolzarb ilmiy-amaliy vazifa

hisoblanadi. Tadqiqot davomida xalq pedagogikasining tarbiyaviy imkoniyatlari, ularning zamonaviy ta’lim jarayonidagi tatbiqi hamda yosh avlodni barkamol shaxs sifatida kamol toptirishdagi o‘rni tahlil qilinadi.

Xalq pedagogikasining ilmiy-nazariy asoslari ko‘plab tarixiy va zamonaviy tadqiqotlarda chuqur o‘rganilgan. Pedagogik merosni ilmiy tahlil qilish jarayonida Abu Nasr Forobiy [3], Ibn Sino [4], Alisher Navoiy [5], Ahmad Yassaviy [6] kabi allomalarning asarlarida ta’lim-tarbiya mazmuni, inson komilligi, axloqiy tarbiya tamoyillari asosiy ustuvor yo‘nalish sifatida talqin etilgan. Ularning g‘oyalari xalq og‘zaki ijodi, urf-odatlar va ma’naviy qadriyatlarga tayangan holda shakllangan bo‘lib, yosh avlodni bilimli, odobli va ma’naviy pok tarbiyalashni ko‘zlagan.

Mustaqillik yillarida xalq pedagogikasining ilmiy ahamiyati yanada oshdi. O‘zbekistonlik olimlar - A. Avliyoqulov [7], N. Azizxo‘jayeva [8], J. Hasanboyeva, Q. Shodiyev, S. Jalolov, M. Ochilovlarning tadqiqotlarida xalq tarbiyaviy tajribalari zamonaviy ta’lim tizimi bilan uyg‘un holda tahlil qilib borilgan. Ular milliy tarbiya konsepsiyasi, shaxsni har tomonlama rivojlantirish, ma’naviy qadriyatlarni saqlash va uzviy ravishda ta’lim jarayoniga tatbiq etish g‘oyalarini asoslab bergan.

“Yana bir boshqa ma’lumotlarga qaraganda, “Globallashuv davrida yoshlarni ta’limva tarbiyalash samaradorligini oshirishda xalq pedagogikasining o‘rni” mavzusining maqsad va vazifalari: Maqsad:1. Ta’lim samaradorligini oshirish asosiy maqsad –globallashuv sharoitida xalq pedagogikasini joriy etish orqali yoshlarga ta’lim va tarbiya sifatini oshirish.

Ushbu ilmiy manbalar tahlili shuni ko‘rsatadiki, xalq pedagogik merosi zamonaviy ta’lim jarayonida shaxsning ma’naviy-axloqiy kamolotini ta’minlashda kuchli manba bo‘lib xizmat qiladi va innovatsion ta’lim yondashuvlari bilan uyg‘un qo‘llanishi mumkin.

Metodolgiya. Tadqiqot davomida quyidagi ilmiy metodlardan foydalanildi: Tarixiy-pedagogik tahlil - xalq tarbiyasi merosining shakllanishi va rivojlanishi o‘rganildi. Komparativ tahlil - xalq pedagogikasining zamonaviy ta’lim tizimi bilan uyg‘unlashuv jihatlari solishtirildi. Kontent-analiz - ilmiy adabiyotlar va tarixiy manbalar tahlil qilindi. Pedagogik kuzatuv - xalq og‘zaki ijodi asosida ta’lim jarayonidagi natijalar baholandi va natijalar qismida jadval asosida xalq pedagogikasining zamonaviy ta’limdagi o‘rni talqin etildi. Xalq pedagogikasining tarixiy bosqichlari:

Xalq pedagogikasining rivojlanishi bir necha bosqichda kechgan:

Qadimgi davr (mil.avv. IX –milodiy VIII asrlar):mehnat, urf-odat, marosimlar orqali tarbiya berish davri.

O‘rta asrlar davri:islom, ilm, axloq va ma’rifat asosida shakllangan tarbiya tizimi.

XIX asr –jadidchilik davri:milliy uyg‘onish, ma’rifat va maktab islohotlari orqali xalq tarbiyasi yangi mazmun kasb etgan.

XX–XXI asrlar:mustaqillik davrida xalq pedagogikasi milliy ta’lim siyosatining tarkibiy qismiga aylandi.

Har bir bosqichdaxalq pedagogikasining mazmuni jamiyat ehtiyojlariga mos ravishda boyib bordi [10].

Xalq pedagogikasi qadriyatlari zamonaviy ta’limdagi shaxsga yo‘naltirilgan yondashuvga asos bo‘ladi. Raqamli o‘quv muhitida xalq ijodiy merosidan foydalanish o‘quvchining ma’naviy immunitetini mustahkamlaydi. Oila va mahalla institutlarini ta’lim jarayoniga jalb qilish yoshlarning ijtimoiy faol va axloqiy barkamol bo‘lishiga xizmat qiladi.

Xalq pedagogikasining zamonaviy ta’limdagi talqini 1-Jadval

№	**Yo‘nalish**	**Zamonaviy talqini**	**Ta’lim jarayonidagi ifodasi**
1	Insonparvarlik va axloqiy qadriyatlar	Milliy va umuminsoniy fazilatlarni rivojlantirish	O‘quvchi shaxsini hurmat qilish, odob-axloq darslari, ijtimoiy-

			emotsional kompetensiyalarni shakllantirish
2	Oila va jamoa tarbiyasi	Ta’limda oila–maktab–mahalla hamkorligini kuchaytirish	Ota-ona bilan hamkorlik, tarbiyaviy tadbirlar, mahalla ishtiroki
3	Milliy o‘zlik va vatanparvarlik	Milliy identitet va fuqarolik madaniyatini mustahkamlash	Tarixiy merosni o‘rganish, davlat ramzlarini hurmat qilish, vatanparvarlik loyihalari
4	Xalq og‘zaki ijodi orqali tarbiya	Ma’naviy-estetik tarbiya, badiiy tafakkurni rivojlantirish	Ertak, maqol-matal, doston va xalq qo‘shiqlaridan ta’limda foydalanish
5	Qadriyat va an’analarni davom ettirish	Tarbiya jarayonida uzviylik va merosiylik	O‘zbek milliy urf-odatlarini dars va tadbirlarda qo‘llash
6	Amaliy hayotga tayyorlash	Hayotiy kompetensiyalarni shakllantirish	Mehnat tarbiyasi, hunar o‘rgatish, hamkorlikda ishlash, ijtimoiy tajriba
7	Ma’naviy-ruhiy sog‘lomlik	Psixologik madaniyatni rivojlantirish	Xulq-odob, sabr-toqat, o‘zini boshqarish, hurmat-ehtirom

Xalq pedagogikasi - milliy tarbiyaning asosi bo‘lib, u yosh avlodda vatanparvarlik, ma’naviy poklik, ijtimoiy mas’uliyat va komil inson fazilatlarini shakllantiradi. Zamonaviy ta’limda xalq pedagogikasi metodlarini interfaol texnologiyalar, raqamli ta’lim vositalari va kompetensiyaviy yondashuvlar bilan uyg‘un qo‘llash ta’lim samaradorligini oshiradi. Shuningdek, xalq pedagogikasi g‘oyalarini ta’lim standartlari, darslik va metodikalar mazmuniga chuqur tatbiq etish bugungi kunning dolzarb vazifasidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mutalipova, M. J. (2015). Xalq pedagogikasi. O ‘quv qo ‘llanma. Toshkent..
2. Alimjanovna, X. D. (2025). Xalq pedagogikasi manbalari. Zamonaviy ilm-fan va innovatsiyalar nazariyasi, 2(4), 55-58..
3. Forobiy, A. N. Fozil odamlar shahri. - Toshkent: Fan, 1993..
4. Ibn Sino. Danishnoma (Bilimlar kitobi). - Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot, 2005..
5. Navoiy, A. Mahbub ul-qulub. - Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot, 1991..
6. Yassaviy, A. Hikmatlar. - Toshkent: O‘qituvchi, 2004..
7. N. H. Avliyoqulov - Zamonaviy o‘qitish texnologiyalari. Toshkent, 2001..
8. N. N. Azizxo‘jayeva - Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. Toshkent, 2006..